


# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-may


2018 yilning yanvar-may oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 3391,5 mlrd. so'mni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3 foizga oshdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




Joriy yilning yanvar-may oylarida savdo xizmatlari 1149,5 mlrd.so'm, transport xizmatlari 772,3 mlrd.so'm, moliyaviy xizmatlar 329,9 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 249,0 mlrd.so'mni tashkil qilganini ko'rish mumkin.

## **2018 yil yanvar-may oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)**



Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (33,9 %), transport xizmatlari (22,8 %), moliyaviy xizmatlar (9,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,9 %) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari (3,1 %) tashkil etadi.



Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (122,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (116,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (116,5 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (114,8 %), va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (112,7 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**Farg'onha viloyat statistika boshqarmasi**

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**Mas'ul:** Sh.Jo'rayev

Tel.: (71) 230-87-28